

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245



Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautes Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 236-sahifa.
2026-yil, sentabr.





MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

КУРПАЯНИДИ КОНСТАНТИН ИВАНОВИЧ

Стратегии цифровой трансформации в Европейском союзе и потенциал институционального трансфера Французского опыта в Узбекистан.....11

ERGASHEV RUSTAM RAJABOVICH

Ilmiy ishlanmalar asosida Spin-off korxonalarini tashkil etish va rivojlantirishning bosqichli boshqaruv modeli.....25

ABDURAXMANOVA MUQADDAS TOXTASINOVNA

Temir yo'l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ilg'or mexanizmlari.....34

ABDULLAYEV ILYOS AXMADOVICH, JABBOROV JAMOLIDDIN MUXAMMADJON O'G'LI

Surxondaryo viloyatida demografik jarayonlarning statistik tahlili.....44

XASANOV SANJARBEK ABDUMANNOBOVICH

Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya darajasini baholash uslubiyoti ("Farg'onaazot" AJ misolida).....50

ABDURAZAKOVA NARGIZA RIXSIBAYEVNA

Aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapital rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar: O'zbekistonning uchta aksiyadorlik jamiyati misolida panel tahlil.....57

SULTANOVA ZUXRA JAKSILIKOVNA

Qaraqalpaqstan Respublikasida region ekonomikasini rivojlantirishda IT park xizmatini amalga oshirish masalalari ham paydalanilgan mumkinliklari.....69

ERGASHEV G'YOS BAXROM O'G'LI

Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish zarurati.....76

URMANOVA UMIDA XAKIMDJANOVNA

Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish holati va rivojlanish tendensiyalari.....87

SHAMSIDDINOVA DILNOZA SHAVKAT QIZI

O'zbekiston charm poyabzal korxonalarida milliy brend qiymatini oshirishning marketing mexanizmlarini takomillashtirish.....97

MUSAYEV OZODJON SHAVKAT O'G'LI

Mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy usullari va ularning iqtisodiy samaradorligi.....106

XALIKCHAYEVA SADOKAT

Qum-shag'al mahsulotlarini realizatsiya qilishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasi "Minimal narx" mexanizmining tatbiq chegaralarini takomillashtirish masalalari.....113

XUSANOV SHUXRAT BURXANOVICH

Moliyaviy hisobotlarni qalbakilashtirish xavfi ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish.....122





QUDRATOV ALISHER ALIJANOVICH, QODIRQULOVA SEVINCH TOIR QIZI

Qishloq xo'jaligida dukkakli mahsulotlarni yetishtirishda davlatning iqtisodiy tutgan o'rni.....133

IKROMOVA IRODA

Transport logistika korxonalari va koridorlari samaradorligini oshirishda milliy logistikani boshqarish markazi platformasi.....139

AXMADOVA IRODA MUZAFFAR KIZI

The economic role of professional tour guides in enhancing the quality of ecotourism services.....153

SODIQOVA NIGORA TURAYEVNA

Suv resurslari cheklangan sharoitda hududiy ixtisoslashuvni takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish.....165

АСРОРОВА МАВЛУДА АБДУШУКУРОВА

Кадровый потенциал в системе государственной научно-инновационной политики: сравнительный анализ опыта зарубежных стран.....175

KULIBOYEV AZAMAT SHONAZAROVICH

Davlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar kalkulyatsiyasini shakllantirish va xarajatlar hisobining uslubiy muammolari.....193

UMAROV JAVOHIR BAHODIR O'G'LI

Tovar operatsiyalari hisobini avtomatlashtirishda integratsiyalashgan axborot tizimlarining roli: jahon tajribasi misolida.....204

KADIROVA LAZOKAT YUREVNA

Davlat moliyaviy nazorati jarayonlarini sun'iy intellekt yordamida riskka yo'naltirilgan raqamli nazorat modeli asosida takomillashtirish.....212

BAXSHULLOYEV FERUZBEK

The economics of digital water management: a critical review.....226

TO'XTAYEV UMIDJON SHUHRAT O'G'LI

Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmi amal qilish tamoyillari.....236





XUSUSIY TIBBIY XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH IQTISODIY MEKANIZMI AMAL QILISH TAMOYILLARI

TO'XTAYEV UMIDJON SHUHRAT O'G'LI

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: umidjon.tuxtayev008@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-2372-7644

Annotatsiya. Maqolada xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmining amal qilish tamoyillari nazariy-uslubiy jihatdan tadqiq etilgan. Tibbiy xizmatlar bozorining axborot asimmetriyasi, ijtimoiy ahamiyati, sifatni oldindan baholash murakkabligi va davlat tomonidan tartibga solish zarurati kabi xususiyatlaridan kelib chiqib, iqtisodiy mexanizmning umumiy bozor tamoyillarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llash yetarli emasligi asoslangan. Mualliflik yondashuvida bemor uchun qiymat yaratish, sifat va xavfsizlik ustuvorligi, iqtisodiy manfaatdorlik, narx–natija mutanosibligi, raqobat neytralligi, axborot shaffofligi, innovatsionlik, resurs samaradorligi, institutsional muvofiqlik, javobgarlik va adaptivlik tamoyillari yagona tizimga keltirilgan. Tamoyillarning iqtisodiy mazmuni, amal qilish vositalari va raqobat natijasi o'rtasidagi bog'liqlik ochib berilgan.

Kalit so'zlar: xususiy tibbiy xizmatlar, raqobatbardoshlik, iqtisodiy mexanizm, tamoyil, qiymat, xizmat sifati, narx, raqobat, axborot shaffofligi, innovatsiya, resurs samaradorligi, bemor manfaati, institutsional tartibga solish.

Аннотация. В статье теоретико-методологически исследованы принципы функционирования экономического механизма повышения конкурентоспособности частных медицинских услуг. Обосновано, что с учетом таких особенностей рынка медицинских услуг, как информационная асимметрия, социальная значимость, сложность предварительной оценки качества и необходимость государственного регулирования, непосредственное применение общерыночных принципов экономического механизма является недостаточным. В авторском подходе в единую систему объединены принципы создания ценности для пациента, приоритета качества и безопасности, экономической заинтересованности, соразмерности цены и результата, конкурентной нейтральности, информационной прозрачности, инновационности, ресурсной эффективности, институциональной согласованности, ответственности и адаптивности. Раскрыта взаимосвязь между экономическим содержанием принципов, инструментами их реализации и результатами конкурентоспособности.

Ключевые слова: частные медицинские услуги, конкурентоспособность, экономический механизм, принцип, ценность, качество услуг, цена, конкуренция, информационная прозрачность, инновации, ресурсная эффективность, интересы пациента, институциональное регулирование.

Abstract. The article theoretically and methodologically examines the principles governing the economic mechanism for enhancing the competitiveness of private medical services. It is substantiated that, given such specific characteristics of the medical services market as information asymmetry, social significance, the difficulty of assessing quality in advance, and the need for government regulation, the direct application of general market principles to the economic mechanism is insufficient. The author's approach integrates the principles of creating value for patients, prioritizing quality and safety, economic incentives, price–outcome proportionality, competitive neutrality, information transparency, innovation, resource efficiency, institutional coherence, accountability, and adaptability into a unified system. The relationship between the economic content of these principles, the instruments for their implementation, and competitiveness outcomes is revealed.

Keywords: private medical services, competitiveness, economic mechanism, principle, value, service quality, price, competition, information transparency, innovation, resource efficiency, patient interests, institutional regulation.





KIRISH

Tibbiy xizmatlar bozori iqtisodiy munosabatlarning oddiy tovar va xizmatlar bozorida farq qiluvchi murakkab segmenti hisoblanadi. Unda xizmatni ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonlari ko'p hollarda bir vaqtda kechadi, iste'molchi xizmat sifatini oldindan to'liq baholay olmaydi, tibbiy qarorlarni qabul qilishda professional bilimlar asimmetriyasi mavjud bo'ladi va xizmat natijasi inson salomatligi bilan bevosita bog'lanadi. Shu sababli xususiy tibbiyotda raqobatbardoshlikni ta'minlovchi iqtisodiy mexanizm faqat narx, talab va taklif ta'siriga asoslangan klassik bozor vositalari bilan cheklanishi mumkin emas.

Xususiy tibbiy xizmatlar bozori kengaygan sari raqobatning mazmuni ham o'zgaradi. Bozor ishtirokchilari o'rtasidagi kurash bemorlar oqimi yoki xizmatlar hajmini ko'paytirish bilan birga, yuqori klinik natija, xavfsizlik, ishonch, qulaylik, texnologik ustunlik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga ko'chadi. Bu esa raqobatbardoshlikni oshirish iqtisodiy mexanizmining amal qilishini muayyan ilmiy tamoyillar asosida tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi.

M. Porter va E. Teysberg tibbiyotda raqobatning maqsadi ishtirokchilar o'rtasida mavjud qiymatni taqsimlash emas, balki bemor uchun yangi qiymat yaratish bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar [1]. Mazkur yondashuv xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligi iqtisodiy mexanizmining markaziga bemor uchun erishilgan natijani qo'yish zarurligini anglatadi.

Xususiy tibbiyotning rivojlanishi sog'liqni saqlash tizimida qo'shimcha investitsiyalar, yangi texnologiyalar, xizmat turlarining diversifikatsiyasi va bemor tanlovini kengaytirish imkonini beradi. Biroq xususiy sektor ulushining ortishi o'z-o'zidan samarali raqobatni kafolatlamaydi. Raqobat noto'g'ri rag'batlar asosida tashkil etilganda ortiqcha xizmatlar taklif qilinishi, axborot asimmetriyasi kuchayishi, xarajatlar o'sishi yoki sifatning iqtisodiy natijalarga qurbon qilinishi ehtimoli mavjud.

Yevropa Komissiyasining sog'liqni saqlashda raqobatga oid ekspert xulosalarida raqobat tashkilotlarni samaradorlik va iste'molchilar ehtiyojlariga moslashishga undaydigan vosita sifatida qaralishi, ammo uning natijasi institutsional muhit va qo'llanilayotgan rag'batlarga bog'liqligi ta'kidlangan [2]. Demak, xususiy tibbiyotda raqobat iqtisodiy mexanizmning maqsadi emas, balki sifat, samaradorlik va bemor manfaatini ta'minlash vositasi sifatida ishlashi lozim.

2026-yilda OECD tomonidan e'lon qilingan sog'liqni saqlash sohasida raqobat va tartibga solish bo'yicha tahlilda tibbiy bozorlarda axborot asimmetriyasi, sug'urta munosabatlari, tashqi ta'sirlar va tenglik masalalari davlat aralashuvini obyektiv ravishda talab qilishi qayd etilgan [3]. Bu holat xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmi bozor erkinligi va institutsional nazorat o'rtasidagi optimal nisbatga tayanishi kerakligini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan iqtisodiy mexanizmning amal qilish tamoyillarini aniq belgilash uning tarkibiy elementlari – narx shakllantirish, investitsion rag'bat, sug'urta to'lovlari, sifat nazorati, akkreditatsiya, raqamlashtirish va davlat-





xususiy hamkorlik vositalarining bir-biriga zid emas, balki yagona strategik maqsadga xizmat qilishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tibbiy xizmatlar bozorida raqobatning iqtisodiy tabiatiga oid tadqiqotlar bir nechta nazariy yo'nalishlarda shakllangan. E. Teysberg, M. Porter va G. Braun raqobatni sog'liqni saqlashda innovatsiya va xarajatlarni uzoq muddatda pasaytirishga rag'bat yaratadigan mexanizm sifatida baholab, raqobatni to'g'ri darajada tashkil etish zarurligini asoslaganlar [4].

M. Porter va E. Teysbergning keyingi tadqiqotlarida esa "nol yig'indili" raqobatdan "ijobiy yig'indili" raqobatga o'tish g'oyasi ilgari surilgan. Ularning fikricha, xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasidagi raqobat kasallik yoki tibbiy holat bo'yicha bemorga yaratilayotgan qiymat, natija va xarajatlar nisbati asosida kechishi lozim [1]. Bu yondashuv iqtisodiy mexanizmning birinchi fundamental tamoyili sifatida qiymat yaratish ustuvorligini belgilash imkonini beradi.

P.A. Rivers va S.X. Glover tibbiy xizmatlar raqobati an'anaviy ravishda narx, sifat, qulaylik, mahsulot va xizmat ustunligi, shuningdek yangi texnologiya va innovatsiyalar asosida shakllanishini ta'kidlaydilar [5]. Ularning tahlili raqobat mexanizmi bir omilli emas, balki ko'p o'lchovli bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

N.Kraxler beshta sog'liqni saqlash tizimi misolida bozorlashuv mexanizmlarini tadqiq etib, raqobatni kuchaytirishga qaratilgan instrumentlar xarajat va sifatga bir xil yo'nalishda ta'sir qilmasligini ko'rsatgan [6]. Bu natija iqtisodiy mexanizmda raqobatni rag'batlantirish bilan birga sifat kafolati, monitoring va javobgarlik tamoyillarini ham bir vaqtda joriy etish zarurligini anglatadi.

Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirishdan ko'rinadiki, xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmi samarali amal qilishi uchun bozor rag'batlari, klinik natijalar, iste'molchi manfaati va institutsional nazorat o'rtasida muvozanat ta'minlanishi lozim. Shu bois tamoyillarning tizimli tasnifini ishlab chiqish mazkur mexanizmni nazariy jihatdan aniqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, mantiqiy umumlashtirish, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, institutsional tahlil hamda ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi. Xususiy tibbiy xizmatlar bozoriga xos iqtisodiy munosabatlar raqobat, sifat, narx, axborot, innovatsiya va davlat tomonidan tartibga solish bloklari bo'yicha guruhlandi. Ilmiy manbalardagi raqobat va qiymatga asoslangan tibbiyot konsepsiyalarini umumlashtirish asosida iqtisodiy mexanizm amal qilish tamoyillarining mualliflik tasnifi shakllantirildi.

Bundan tashqari, xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqilib, ularning iqtisodiy mexanizm samaradorligiga ta'sir yo'nalishlari aniqlandi. Tahlil jarayonida xizmat





ko'rsatuvchi subyektlarning bozor mavqei, iste'molchilar talabi, xizmatlar sifati, narx siyosati, texnologik yangilanish va institutsional muhit o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikka e'tibor qaratildi. Shuningdek, davlat tomonidan taqdim etiladigan imtiyoz va preferensiyalarning xususiy tibbiy xizmatlar bozorida investitsion faollik, innovatsion rivojlanish va raqobat muhitini shakllantirishdagi iqtisodiy ahamiyati nazariy jihatdan baholandi. Olingan ilmiy xulosalar asosida xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari tizimlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy mexanizm deganda xususiy tibbiy xizmatlar bozori ishtirokchilarining manfaatlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy vositalar, rag'batlar, cheklovlar, institutlar va boshqaruv usullarining o'zaro bog'langan tizimini tushunish mumkin. Mexanizmning amal qilish tamoyillari esa ushbu vositalar qaysi mantiqiy qoidalarga tayanishi, ularning o'zaro muvofiqligi qanday ta'minlanishi va yakuniy natija qaysi mezonlar asosida baholanishini belgilaydi.

Fikrimizcha, xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmining bosh tamoyili bemor uchun qiymat yaratish ustuvorligi hisoblanadi. Bunda xususiy klinikaning iqtisodiy natijasi bemorga ko'rsatilgan xizmatlar sonining mexanik o'sishiga emas, balki erishilgan klinik natija, xizmat sifati va sarflangan resurslar nisbatiga bog'lanishi lozim. Mazkur tamoyil xizmat hajmini ko'paytirishga rag'batlantiruvchi ekstensiv modeldan natija va qiymatga asoslangan intensiv modelga o'tishni nazarda tutadi.

Ikkinchi tamoyil – sifat va xavfsizlik ustuvorligi. Tibbiy xizmatda iste'molchi xatoning oqibatini oddiy tovar bozoridagi kabi almashtirish yoki qaytarish orqali bartaraf eta olmaydi. Shu sababli iqtisodiy samaradorlikka erishish sifat va bemor xavfsizligi hisobiga amalga oshirilmasligi kerak. Xarajatlarni optimallashtirish, tariflarni shakllantirish va personalni rag'batlantirish mexanizmlari klinik standartlarga rioya qilish bilan chegaralanishi zarur.

Uchinchi tamoyil – iqtisodiy manfaatdorlik va natija o'rtasidagi bog'liqlik. Xususiy klinika, shifokor, investor, sug'urta tashkiloti va bemorning iqtisodiy manfaatlari turlicha bo'lishi mumkin. Samarali mexanizm ushbu manfaatlarni qarama-qarshi qo'ymasdan, yuqori sifatli natijaga erishish atrofida muvofiqlashtirishi kerak. Masalan, tibbiy personal rag'batini faqat xizmatlar soniga bog'lash ortiqcha xizmat ko'rsatish xavfini oshirsa, uni natija, sifat va bemor qoniqishi bilan birlashtirish rag'batlar muvozanatini ta'minlaydi.

To'rtinchi tamoyil – narx va natija mutanosibligi. Xususiy tibbiyotda narx bozor signali vazifasini bajaradi, ammo yuqori narx avtomatik ravishda yuqori sifatni anglatmaydi. Shu sababli narx shakllantirishda xizmatning texnologik murakkabligi, resurs sig'imi, mutaxassis malakasi, klinik natija va bemor uchun yaratiladigan qiymat o'zaro hisobga olinishi lozim. Narx shaffofligi esa iste'molchining ratsional tanlovini qo'llab-quvvatlaydi.





Beshinchi tamoyil – raqobat neytralligi va teng shartlar. Bozorda turli mulk shaklidagi tibbiyot tashkilotlari ishtirok etgan sharoitda moliyalashtirish, akkreditatsiya, davlat buyurtmasi va sug'urta to'lovlariga kirish mezonlari aniq va natijaga asoslangan bo'lishi zarur. OECD tahlillarida bemorning xizmat ko'rsatuvchini tanlash imkoniyati tibbiy xizmatlar bozorida raqobatning zarur shartlaridan biri sifatida ko'rsatilgan [3].

Oltinchi tamoyil – axborot shaffofligi. Tibbiyot bozorida shifokor va bemor o'rtasidagi bilim asimmetriyasi yuqori bo'lgani sababli raqobatni faqat erkin tanlovga asoslash yetarli emas. Bemorga narx, xizmat tarkibi, shifokor malakasi, akkreditatsiya, davolash natijalari va ehtimoliy xavflar to'g'risida tushunarli axborot taqdim etilishi zarur. Porter va Teysberg standartlashtirilgan natija va narx axborotining keng tarqatilishini samarali raqobatning muhim sharti sifatida ko'rsatadilar [1].

Yettinchi tamoyil – innovatsionlik va texnologik yangilanish. Xususi tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligi diagnostika, davolash, axborot almashinuvi va bemor bilan kommunikatsiyada yangi texnologiyalarni tez o'zlashtirish qobiliyatiga bog'liq. Biroq innovatsiyaning iqtisodiy samarasi uning yangiligi bilan emas, balki klinik natija, vaqt tejamlorligi, xarajatlarni kamaytirish yoki xizmatdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish orqali baholanishi kerak.

Sakkizinchi tamoyil – resurs samaradorligi. Xususi klinik resurslarning cheklanganligi sharoitida kapital, mehnat, vaqt, tibbiy uskuna va materiallardan optimal foydalanishi lozim. Resurs samaradorligi xarajatni oddiy qisqartirish emas, balki bir birlik resurs hisobiga yuqoriroq tibbiy va iqtisodiy natijaga erishishni anglatadi.

To'qqizinchi tamoyil – institutsional muvofiqlik. Xususi tibbiy xizmatlar bozorida litsenziyalash, akkreditatsiya, klinik protokollar, soliq, sug'urta, raqobat va iste'molchilar huquqini himoya qilish institutlari bir-biri bilan muvofiq ishlashi zarur. Bir institutning rag'bat boshqa institut talablariga zid kelsa, mexanizmning umumiy samaradorligi pasayadi.

O'ninchi tamoyil – iqtisodiy va professional javobgarlik. Bozor ishtirokchisining qarorlari natijasi uchun javobgarlik aniq bo'lmasa, axborot asimmetriyasi va moral tavakkalchilik kuchayadi. Shu bois xususi klinik faoliyatida sifat buzilishi, asossiz narx, noto'g'ri axborot yoki klinik protokollarga rioya qilmaslik bilan bog'liq iqtisodiy va reputatsion oqibatlar belgilanishi lozim.

O'n birinchi tamoyil – adaptivlik va barqarorlik. Tibbiy texnologiyalar, kasalliklar tarkibi, aholi daromadlari, sug'urta mexanizmlari va raqamli yechimlar tez o'zgarib borayotgan sharoitda iqtisodiy mexanizm qat'iy statik model emas, balki tashqi va ichki o'zgarishlarga moslasha oladigan tizim bo'lishi kerak. Tamoyillarning mazkur jihati mexanizmni uzoq muddatda raqobatbardosh saqlash imkonini beradi.

1-jadvalda keltirilgan tamoyillar mustaqil elementlar bo'lsa-da, amalda ular bir-birini to'ldiradi. Masalan, axborot shaffofligisiz narx–natija mutanosibligini iste'molchi tomonidan baholash qiyin; sifat va xavfsizlik ustuvorligisiz resurs samaradorligi xarajatlarni mexanik qisqartirishga aylanishi mumkin;





javobgarliksiz esa iqtisodiy manfaatdorlik noto'g'ri rag'batlarni shakllantirishi ehtimoli mavjud.

1-jadval

Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmi amal qilish tamoyillarining tizimlashtirilishi

Nº	Tamoyil	Iqtisodiy mazmuni	Amal qilish natijasi
1	Bemor uchun qiymat yaratish	Natija va xarajat nisbatini bemor manfaati nuqtayi nazaridan optimallashtirish	Qiymatga asoslangan raqobat
2	Sifat va xavfsizlik ustuvorligi	Iqtisodiy qarorlarni klinik standart va xavfsizlik talablari bilan cheklash	Barqaror xizmat sifati
3	Iqtisodiy manfaatdorlik	Rag'batlarni natija va sifat bilan bog'lash	Manfaatlar muvofiqligi
4	Narx–natija mutanosibligi	Narxni resurs sarfi, murakkablik va natija bilan muvofiqlashtirish	Adolatli narx signali
5	Raqobat neytralligi	Bozor ishtirokchilari uchun aniq va teng mezonlar	Sog'lom raqobat muhiti
6	Axborot shaffofligi	Narx, sifat va natija haqida ochiq ma'lumot	Axborot asimmetriyasining kamayishi
7	Innovatsionlik	Samarali yangi texnologiyalarni joriy etish	Texnologik ustunlik
8	Resurs samaradorligi	Bir birlik resursga yuqori natija	Xarajatlarning optimallashtirish
9	Institutsional muvofiqlik	Litsenziya, sug'urta, akkreditatsiya va raqobat institutlarini uyg'unlashtirish	Mexanizmning yaxlit ishlashi
10	Javobgarlik	Qaror va natija uchun iqtisodiy-professional mas'uliyat	Moral tavakkalchilikning kamayishi
11	Adaptivlik	Texnologik va bozor o'zgarishlariga moslashish	Uzoq muddatli barqarorlik

Manba: muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Shu bois iqtisodiy mexanizmni loyihalashda tamoyillar iyerarxiyasiga amal qilish maqsadga muvofiq. Bunda bemor uchun qiymat yaratish va sifat-xavfsizlik bazaviy tamoyillar; iqtisodiy manfaatdorlik, narx–natija mutanosibligi, raqobat neytralligi va resurs samaradorligi funksional tamoyillar; axborot shaffofligi, institutsional muvofiqlik, javobgarlik, innovatsionlik va adaptivlik esa mexanizmning barqaror ishlashini ta'minlovchi qo'llab-quvvatlovchi tamoyillar sifatida qaralishi mumkin.

2-jadval

Iqtisodiy mexanizm tamoyillarining iyerarxik guruhlanishi

Tamoyillar guruhi	Tarkibi	Mexanizmdagi vazifasi
Bazaviy	Bemor uchun qiymat; sifat va xavfsizlik	Mexanizmning yakuniy maqsadi va chegaralarini belgilaydi
Funksional	Iqtisodiy manfaatdorlik; narx–natija mutanosibligi; raqobat neytralligi; resurs samaradorligi	Iqtisodiy vositalarning kundalik amal qilish mantig'ini belgilaydi
Qo'llab-quvvatlovchi	Axborot shaffofligi; innovatsionlik; institutsional muvofiqlik; javobgarlik; adaptivlik	Mexanizmning ishonchliligi, yangilanishi va barqarorligini ta'minlaydi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.





Taklif etilayotgan iyerarxik yondashuvning afzalligi shundaki, u iqtisodiy mexanizmda qo'llaniladigan har qanday yangi instrumentni uning umumiy maqsadlarga muvofiqligi bo'yicha tekshirish imkonini beradi. Masalan, xususiy klinikalarga investitsion imtiyoz berish innovatsionlik va resurs samaradorligiga xizmat qilishi mumkin, ammo u sifat natijalari bilan bog'lanmasa, bazaviy tamoyillarga to'liq javob bermaydi.

Xuddi shuningdek, sug'urta to'lovlarini yagona tarif asosida belgilash raqobat neytralligini ta'minlashi mumkin, biroq murakkab klinik holatlar va natijalar farqi hisobga olinmasa, narx–natija mutanosibligi buzilishi mumkin. Demak, iqtisodiy mexanizm samaradorligi alohida vositaning mavjudligi bilan emas, uning tamoyillar tizimiga qanchalik muvofiq integratsiya qilingani bilan belgilanadi.

Natijada xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmini tamoyillarga asoslangan boshqarish bozor ishtirokchilarining qisqa muddatli moliyaviy manfaatlarini uzoq muddatli sifat, innovatsiya va bemor ishonchi bilan muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmining amal qilishi umumiy bozor qonunlariga tayanish bilan cheklanmasdan, tibbiy xizmatning ijtimoiy va klinik xususiyatlarini hisobga oluvchi maxsus tamoyillar tizimi asosida tashkil etilishi zarurligini ko'rsatdi.

Birinchidan, mexanizmning markaziy mezoni sifatida bemor uchun qiymat yaratish tamoyilini belgilash maqsadga muvofiq bo'lib, xususiy klinikaning iqtisodiy natijalari xizmat hajmidan ko'ra klinik natija, sifat va resurs sarfi nisbati bilan bog'lanishi lozim.

Ikkinchidan, sifat va xavfsizlik iqtisodiy samaradorlikning cheklovchi emas, balki uning ajralmas tarkibiy sharti sifatida qaralishi, narx, rag'bat va investitsion qarorlar klinik standartlarga muvofiq shakllantirilishi zarur.

Uchinchidan, iqtisodiy manfaatdorlik, narx–natija mutanosibligi, raqobat neytralligi va resurs samaradorligi mexanizmning funksional tamoyillari sifatida o'zaro bog'liq qo'llanilishi bozor subyektlarining manfaatlarini yuqori natijaga yo'naltirish imkonini beradi.

To'rtinchidan, axborot shaffofligi, innovatsionlik, institutsional muvofiqlik, javobgarlik va adaptivlikni qo'llab-quvvatlovchi tamoyillar sifatida joriy etish mexanizmning tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvchanligi va uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

Shu asosda xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmining amal qilish tamoyillarini "bazaviy – funksional – qo'llab-quvvatlovchi" uch darajali tizimda qo'llash taklif etiladi; mazkur yondashuv iqtisodiy vositalarni bemor manfaati, sifat, samaradorlik va bozor barqarorligi nuqtayi nazaridan kompleks muvofiqlashtirish imkonini beradi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter M.E., Teisberg E.O. Redefining Competition in Health Care // Harvard Business Review. – 2004. – Vol. 82, No. 6. – P. 64–76, 136.
2. European Commission. Expert Panel on Effective Ways of Investing in Health. Competition among health care providers: policy options regarding competition. Final opinion. – Brussels, 2015.
3. OECD. Competition and Regulation in the Healthcare Sector. – Paris: OECD Publishing, 2026.
4. Teisberg E.O., Porter M.E., Brown G.B. Making Competition in Health Care Work // Harvard Business Review. – 1994. – Vol. 72, No. 4. – P. 131–141.
5. Rivers P.A., Glover S.H. Health care competition, strategic mission, and patient satisfaction: research model and propositions // Journal of Health Organization and Management. – 2008. – Vol. 22, No. 6.
6. Krachler N. Can Public Healthcare Afford Marketization? Market Principles, Mechanisms, and Effects in Five Health Systems // Public Administration Review. – 2022. – Vol. 82. DOI: 10.1111/puar.13388.
7. Porter M.E., Teisberg E.O. Redefining Health Care: Creating Value-Based Competition on Results. – Boston: Harvard Business School Press, 2006. – 506 p.
8. Porter M.E., Teisberg E.O. How Physicians Can Change the Future of Health Care // JAMA. – 2007. – Vol. 297, No. 10. – P. 1103–1111. DOI: 10.1001/jama.297.10.1103.
9. World Health Organization. Engaging the private health service delivery sector through governance in mixed health systems. – Geneva: WHO, 2020.
10. World Health Organization. The private sector in health service delivery: an operational definition. – Geneva: WHO, 2023.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjournal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669225 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy